



O'ZBEKISTON-MISR MUNOSABATLARI VA REAL ISTILBOLLARI

Meliqo'ziyeva Fotimaxon Abdurashid qizi
O'zbekiston Davlat Jahon Tillari Universitetining
Tarjimonlik Fakulteti 3-Bosqich Talabasi

Misr Arab Respublikasi Afrikaning shimoli-sharqiy qismida joylashgan. Liviya, Sudan, Isroil davlatlari bilan chegaradosh. Axolisi — 96 million kishi, arab mamlakatlari orasida axolisi eng ko'p mamlakat. Poytaxti — Qoxirada 12 million kishi yashaydi. Xududi — 1 001 450 km². Eng yirik shaharlari — Qoxira va Iskandariya. xam Arab davlatlari ligasi va Afrika ittifoqining a'zosi. Mazkur davlatdagi Al-Azhar universiteti musulmon olamidagi eng obro'li ta'lim dargoxlaridan biri xisoblanadi. 1991-yildan buyon Uzbekiston –Misr munosabatlari muvaffakiyatli rivojlanib kelmoqda . Hamkorligimiz turli sohalarni qamrab olgan. 2018 yilning fevral oyida O'zbekiston va Misr biznesmenlari o'rtasida bo'lib o'tgan uchrashuvda imzolangan o'zaro xamkorlik memorandumini iqtisodiy munosabatlarning jonlanayotganligiga yorqin misoldir. Shartnoma bandlariga asosan, mamlakatimiz Misrga «Artel» milliy kompaniyasi tomonidan ishlab chiqariladigan maishiy-tehnika vositalarini eksport qilish amalga oshmoqda.

O'rta asrlarda buyuk mutafakkir bobokalonimiz Axmad al-Farg'oniy Qoxira shahrining markazidan o'tgan Nil daryosi o'zanida suvning hajmi va sathini o'Ichaydigan inshoot — nilomerni yaratgan. E'tiborlisi, bu inshootdan hozirgacha foydalanib kelinmoqda. Bobokalonimizning o'zbek haykaltaroshi Jaloliddin Mirtojiev tomonidan yasalgan haykali 2007 yili Qoxira shaxrining markaziga o'rnatilgan.

Misr Arab Respublikasi 1992 yilning 26 dekabrda mamlakatimiz mustaqilligini tan oldi .

Bugungi kunda ikki davlat munosabatlarini yo'lga soluvchi turli doiradagi 51 hujjat imzolangan.

Ushbu ma'lumotlardan so'ng menda bevosita O'zbekiston va Misr davlati o'rtasida kandy siesiy va iqtisodiy munosabatlar bor ekan degan savol tug'ildi O'zbekiston uchun Misr davlati bilan siesiy-iqtisodiy munosabatlarni urnatish O'zbekistonning nufuziga, SHarq davlatlari orasidagi obro'siga va mamlakatimizdagi siyosiy va iqtisodiy barqarorlikka o'z ta'sirini ko'rsatadi. Hozirda O'zbekiston-Misr aloqalarida fundamental muammolar yuq. Olamda faqat bitta rang bo'lmagani kabi, faqat bitta turdagi tamaddun ham bo'lmaydi. Har bir davlat ekki



mamlakat dunyo tamaddunining rivojiga o'zining u yoki bu darajadagi hissasini albatta qo'shadi. Shu tufayli, barcha millatlarning xilma xilligini, dinini va tamaddunini hurmat qilish lozim. Shu bilan birga, umumiy kelishuv va hamkorlikka erishish maqsadida, mamlakatlar bir biridan o'rganishiga xar hil tamaddunlar o'rtasidagi munosabatlarni, tenglik ruhida, demokratik tamoyillarga asoslangan holda, o'zaro hurmat asosida olib borish lozim. Mana yarim asrdan buyon Misr Arab Respublikasi mustaqil davlat sifatida rivojlanib kelmoqda. 1952 yil 23 iyulda amalga oshgan milliy-demokratik inqilob mamlakat rivojini tubdan o'zgartirib yubordi va siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy sohalardagi mustakil, erkin rivojlanishiga keng yo'l ochib berdi.

Iyul inqilobi Osiyo va Afrika chegaralari o'rtasida joylashgan, ko'psonli, shuningdek, ularga nisbatan siyosiy, iqtisodiy va madaniy aloqalarda ilg'or bo'lgan arab mamlakatida sodir bulgani Misr davlatini urab turgan mamlakatlar urtasida mavqesini oshirdi. Misr Prezidenti Husni Muborak o'zining chiqishlarida bir necha bor – “Misr - Bu faqat Misrliklar qiziqishlari doirasi.” - der edi. Misr - bu salmoqli subaekt, globallashuvning faol ishtirokchisi. Misr davlati rahbariyati globallashuv chaqiriqlarini betaraflik ohangida tushunadi va qabul qiladi, shu bilan birga, ko'ptomonlama diplomatiya va iqtisodiy hamkorlikka urg'u beradi. Misr va markaziy osiyo mamlakatlari o'rtasida juda ko'p o'zaro kelishuvlar bor. Bu kelishuvlarning yo'nalishi xilma xil va u iqtisodiy, texnologik, diniy va madaniy hamkorliklarni o'z ichiga oladi. O'zbekiston - Misr munosabatlarining rivojlanishiga kelsak, bu yulda avvalambor chuqur mulohaza va siyosiy o'lchov kerak. Sharqda odatda sharqqa hos diplomatik yo'l tutish kerak. Bugungi Misr harbiy harakatlarda qatnashishdan va ittifoqchi bo'lishdan yiroq, o'zining mustaqilligini himoya qiladi, lekin o'zining milliy qarashlari uchun kurashib arab, Afrika musulmon davlatlari, shuningdek, AKSH eki Evropa ittifoqi mamlakatlari bilan keskin ziddiyatga bormaydi.

Bizning davrimizda ikki mamlakatning do'stona munosabatlari bu ilmiy madaniy va ma'rifiy aloqalarning rivojlanishida. siyosiy muloqot mavjud. Bunga siyosiy maslahatlar, ichki ishlar organlari bilan hamkorliklar kiradi. O'zbekiston Respublikasi va Misr Arab Respublikasi o'rtasidagi diplomatik aloqalar 1992-yili 23-yanvarda yo'lga qo'yilgan. Misr - o'zbek munosabatlari ildizi uzoq tarixga borib taqaladi. Amir Temur 600 yil avval qo'shnilar bilan do'stona munosabatlarni o'rnatish kerakligini anglagan. Amir Temur dunyoning barcha qismlaridagi mamlakatlar, bir tomondan Xitoy, Hindiston, boshqa tomondan Fransiya, Angliya,



shuningdek, Usmoniylar imperiyasi, Ispaniya, Italiya, Misr va boshka davlatlar bilan hamkorlikni rivojlantirishga intildi.

O'zbekistonda iqtisodiyotni siyosatdan ustunligi, qayta ko'rishning bosqichma bosqichligi, ularning qonuniyligi – barchasi O'zbekistonning iqtisodiy qudratini oshirishga va buyuk davlat sifatida tan olinishiga olib keldi. Hozirda O'zbekiston o'z nuqtai nazari va ovozigaga ega davlatdir. BMT tomonidan ma'qullangan Toshkent taklifiga ko'ra Markaziy Osiyoda yadrodan holi hudud yaratish, Afg'oniston va Tojikistondagi muammolarni tinch yo'l bilan hal qilinishi buni isbotidir. O'zbekiston Respublikasi Misrni Yaqin Sharq, SHimoliy Afrika va O'rtayerdengizi mamlakatlari orasidagi eng yaqin sherik deb biladi.

Oxirgi yillardagi ikki tomonlama hamkorlikda yuqori darajadagi ishonch paydo bo'ldi. Demokratik jarayonlarda ikki davlatning ichki hayotida vaqti vaqti bilan yuz beradigan munosabatlar o'zaro munosabatlarda o'z aksini topmaydi. Davlatlarimiz rivojlanishda o'zaro manfaatdorlikka asoslanadi.

O'zbekiston va Misr o'rtasidagi ko'p qirra va o'zaro foydali hamkorlik mavjud. U o'zaro hurmat insoniy munosabatlarga qurilgandir. XX asrning 50- 80-yillardagi rivojlangan o'zbek-misr xalqi o'rtasidagi kadrlar tayyorlash, xalq diplomatiyasi, fan, millioratsiya, etnografik tadqiqodlar, madaniyat, adabiyot, kinomatografiya va boshqa sohalardagi hamkorlik bunga yaqqol misoldir. O'zbekiston xalqi Misr bilan do'stona munosabatlarni yuqori baholaydi va bundan keyin ham shunday bo'lib qoladi hamkorligimiz. Tinchlikni va ijtimoiy ravnaqni mustahkamlaydi. Bizni – o'zbeklarni va misrliklarni – XX asrda ko'p narsa birlashtirdi, o'ylaymizki, yangi ming yillikda ham – XXI asrda ham do'stligimiz bardavom bo'ladi.